

JAHON MAMLAKATLARIDA KOMPERAVISTIK PEDAGOGIKA TURLARI VA FAOLIYATI

Normamatova Aziza Urazboy qizi

Guliston davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrası Pedagogika yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Maqolada jahon mamlakatlarida komperavistik pedagogikaning vazifasi maqsadi bilan birgalikda rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimi va ularning o'xshash va farqli tomonlari, tajribalari, taqqoslanishi davlatlar ta'lim tizimidagi kamchiliklar haqida yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Komperavistik pedagogika, qiyosiy pedagogika raqamli texnologiyalar, taqqoslash, tizim, ta'lim, samaradorlik, xalqaro, modernizatsiya,*

KIRISH

Bugungi modernizatsiyalashgan har bir rivojlangan va rivojlanish bosqichida turgan mamlakatlarning ta'lim tizimi xalqaro miqyosda o'rganilmoqda, solishtirilmoqda. Jahon mamlakatlarning ta'lim tizimi hamda uning mazmuni, vazifasi va maqsadini komperavistik pedagogika fani qiyosiy tarzda o'rganmoqda.

Bizga ma'lumki, komperavistik pedagogika turli davlatlarning ta'lim tizimining taqqoslanishi hamda bu taqqoslanish asosida davlatlar ta'lim va tarbiya to'g'risidagi ishlardan keng qamrovli tarzda xabardor bo'lishi, uni ish faoliyatida muhim ahamiyat kasb etuvchi pedagogik bilim, nazariya va mahoratni rivojlantirib, boyitib berishdir.

Adabiyotlar sharhi

Komperavistik pedagogika fanida aniqlangan ko'plab nazaryalar va qonuniyatlar uzoq yillar oldin ma'lum bir maqsadda bajarilgan tajribalarning mahsuli hisoblanadi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, qiyosiy pedagogika goylari Buyuk Britaniyada (M.Sadler), AQSHda (K.Stou), Germaniyada (C.Kruz) keng tarqaldi eng ilgor jahon pedagogik tajribasi asosida milliy talim tizimini takomillashtirish asosiy maqsad boldi. Xuddi shu davrda qiyosiy ta'limning birinchi xalqaro markazlari paydo bolib, ularda turli mamlakatlarning ta'lim tajribasi tizimlashtirilgan va o'rganilgan

19-asrda ta'limning qiyosiy tahliliga bagishlangan birinchi tadqiqotlar Rossiyada nashr etilgan. K. D. Ushinskiy o'z vatanida Yevropa davlatlarining pedagogik tajribasidan foydalanishning ba'zi imkoniyatlari haqida yozar ekan, bu ishni mahalliy ta'limga ziyon yetkazmasdan, ehtiyotkorlik bilan bajarish kerakligini takidlagan. Ko'pgina mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar K. D. Ushinskiyni rus qiyosiy pedagogikasining asoschisi deb bilishadi.

Xorijiy tajriba bilan ham tanish bolgan L.N.Tolstoy undan Rossiya manfaati uchun foydalanish imkoniyatini tanqid qilib, chet el ta'limining ayrim elementlarinigina ijobiy ta'kidladi. Xalq ta'limi goyasining tarafdori bolgan L.N.Tolstoy rus ta'limining o'ziga xosligini ta'kidlab, boshqa mamlakatlarda qilingan narsalarni ko'r-ko'rona nusxalashni qabul qilib bolmaydigan va xavfli deb hisobladi.

Har bir fan turg'unlikka ega bo'lmay, yangi nazriyalar, tushunchalar hamda atamalar bilan boyib boradi. Shuningdek, komperavistik pedagogika fani ham boyib, rivojlanib bormoqda. I.A.Tagunova o'z maqolasida qiyosiy tadqiqotlarga zamonaviy yondashuvlarni, uning tadqiqot kontekstining yangi tushunchalari va ushbu bilim sohasidagi ma'lumotlarni sharhlash usullariga asoslangan holda tahlil qiladi

Metodologiya

Komperavistik pedagogika fani mamlakatlar ta'lim tizimi o'rganilish jarayonida bir biriga taqqoslanadi va o'z ta'lim tizimiga milliyashtirilgan holda andoza olinadi. Misol tariqasida O'zbekiston va Fransiya ta'lim tizimi taqqoslanadi. Bu jarayonda mamlakatlar ta'lim tizimidagi o'xshash va farqli tomonlari namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich talim. Fransiyada boshlang'ich maktablarga olti yoshdan o'n bir yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich ta'lim barcha uchun majburiy va bepuldir.

O'qish mashg'ulotlari ertalab soat to'qqizdan o'n ikkigacha, hamda soat o'n to'rtidan o'n oltigacha - besh soat davom etadi.

Darslarning qirq besh foizi gumanitar fanlar, qolganlari esa tabiiy fanlardir. Sinflarning o'rtacha haftalik darslari yigirma olti soatdan iborat bo'lib, darslarning davomiyligi oltmish minutdir. Sinflardagi bolalarning soni o'rtacha o'ttiz besh va qirqtani tashkil qiladi. Fransiyada o'quv yili beshta chorakka bo'linadi.

Fransiya universitetlariga orta maktabni bitirib kirish mumkin, ammo orta talim attestatidan tashqari fransuz tilini mukammal bilish haqidagi diplom, yani DELE/DALF sertifikatlari bolishi lozim. O'rta maktab attestati baholari esa qaysi yo'nalishda o'qishni belgilab beradi. Fransiya universitetlarida oliy talim Fransiya universitetlariga orta maktabni bitirib kirish mumkin, ammo orta talim attestatidan tashqari frantsuz tilini mukammal bilish haqidagi diplom, yani DELE/DALF sertifikatlari bolishi lozim. O'rta maktab attestati baholari esa qaysi yonalishda oqishingizni belgilab beradi. Fransiyada talim tizimi 3 bosqichda amalga oshiriladi;

1 turkum: umumiy bolib, oqish muddati ikki yil davom etadi.

2 turkum: Oqish bir yil davom etadi. Talabalar uni magistr darajasi bilan yakunlaydi.

3 turkum: Oqish bir-ikki yil davom etadi.

Boshlang'ich ta'lim O'zbekistonda yetti yoshdan o'n bir yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. O'qish mashg'ulotlari ertalab soat sakkizdan o'n ikkigacha hamda o'n uchdan o'n oltigacha davom etadi. Darslar qirq besh minutni tashkil etadi. O'quv yili to'rt chorakka bo'linadi.

O'zbekistonda boshlang'ichdan keyin o'rta ta'lim turadi.

O'n ikki yoshdan o'n besh yoshgacha bo'lgan bolalar bu ta'limda ishtirok etadi. O'rta ta'limdan so'ng o'quvchilar xohishlariga qarab kasb -hunar kollejlari yoki o'rta maxsus ta'limda ishtirok etishadi.

Bu bosqichdan so'ng o'quvchilar majburiy bo'lmagan oliy ta'lim muassasalariga imtihon asosida qabul qilinadi. Oliy ta'lim bakalavr (4 yil), magistratura (2 yil) va doktorantura (3 yil) kabilarga bo'linadi.

Natijalar va muhokama

Ushbu fan jahon mamlakatlarning ta'limida ilg'or tajribalar bilan birgalikda rivojlangan davlatlar ta'limida tizimida kamchiliklar yo'q degani emas, bizning ya'ni O'zbekistonning ta'im tizimida muammolar mavjud. Ulardan biri shaharning chekka hududlarida zamonaviy texnologiyalarning yetishmasligi hamda o'qiyuvchilarda mediasavodxonlikning bo'lmasligidadir.

Bunda zamonaviy axborot vositalari yani elektron doska va televizorlar yetishmasligi va o'qituvchi kadrlarning media haqida bilimlarga ega bo'lmasligi shuningdek, aloqa sifatining pastligi ta'lim sifatining samaradorligini oshmasligidan daolat beradi.

Ushbu muommoning oldini olish uchun avvalo shahar chekkasidagi hududlar ya'ni qishloqlardagi maktab sharoitlarini o'rganish va wi-fi tizimini joriy etish darkor. Shundan so'ng o'qituvchilarga zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bilim berish , maktablarda seminar darslarini tashkil etish kabilarni yo'lga qo'yish darkor.

Tadqiqot natijasida ko'ra, ta'lim sifatining past bo'lishi zamonaviy texnologiyalar qishloq hududlarida yetishmasligi, internet sifatining talabga javob bermasligi va o'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanishidagi kamchiliklar deb qaraldi. Bu kamchiliklarning oldini olish uchun qishloq maktablariga ham e'tibor qaratish , avvalambor , maktab sharoitlardan xabardor bo'lishi, ularni raqamli platformalar bilan keng ta'minlash , o'qituvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha malakasini oshirish kerak.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki , komperativistik pedagogika fani jahon mamlakatlaridagi ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalarni o'rganadi. Bu fanning yaxshi jihatlaridan biri faqatgina ta'lim tizimi bilan cheklanib qolmay birgalikda mamlakatlarning madaniyati , turmush tarzini tarbiyalanganlik darajasini ham o'rganishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.:2003.
2. Jumanioyozova M. Innovasion faoliyat tushunchasi va malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovasion faoliyatga tayyorlash.// Xalq ta'limi, 2004, 6 son.
3. Jo'raev R.H., Rahimov B.X., Xolmatov Sh. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'limga asoslangan o'quv –metodik qo'llanma.-T.: Fan, 2005.
4. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tadbiq etish bosqichlari. //. Xalq ta'limi. 1997.MATEMATIKA DARSLARIDAZ